



**TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI**



*2024- yil yanvar-may oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:
(71) 203-88-20(21)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-may oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **10 465,7** mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **643,1** mln AQSH dollariga yoki **6,5 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may 2024 y., mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **10 465,7** **+6,5 %**

(2023- y.: **9 822,6**)



Saldo

2024- y.: **-6 276,5** (2023- y.: **-5 862,3**)



Eksport

2024- y.: **2 094,6** **+5,8 %**

(2023- y.: **1 980,2**)

TSA dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **8 371,1** **+6,7 %**

(2023- y.: **7 842,5**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 2 094,6 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 5,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 8 371,1 mln AQSH dollariga (6,7 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -6 276,5 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-may oylari, mln AQSH dollari)

Rossiya TSA – 2 709,3 Eksport: 399,1 Import: 2 310,2  25,9 %	XXR TSA – 2 150,9 Eksport: 310,5 Import: 1 840,4  20,6 %	Qozog‘iston TSA – 724,6 Eksport: 157,1 Import: 567,5  6,9 %	Turkiya TSA – 523,8 Eksport: 155,7 Import: 368,1  5,0 %	Turkmaniston TSA – 358,6 Eksport: 18,4 Import: 340,2  3,4 %
AQSH TSA – 263,3 Eksport: 57,4 Import: 205,9  2,5 %	Germaniya TSA – 234,0 Eksport: 15,1 Import: 218,9  2,2 %	Litva TSA – 221,1 Eksport: 110,1 Import: 111,0  2,1 %	Hindiston TSA – 204,7 Eksport: 7,5 Import: 197,2  2,0 %	BAA TSA – 167,5 Eksport: 43,7 Import: 123,8  1,6 %

Toshkent shahri jahonning 170 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (25,9 %), XXRda (20,6 %), Qozog‘istonda (6,9 %), Turkiyada (5,0 %) va Turkmanistonda (3,4 %) qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may mln AQSH dollari)



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	1 628,7	1 933,6	2 709,3
<i>Eksport</i>	296,1	352,8	399,1
<i>Import</i>	1 332,6	1 580,8	2 310,2



XXR	1 727,3	2 124,2	2 150,9
<i>Eksport</i>	356,2	302,3	310,5
<i>Import</i>	1 371,1	1 821,9	1 840,4



Qozog'iston	649,7	763,0	724,6
<i>Eksport</i>	143,3	180,5	157,1
<i>Import</i>	506,4	582,5	567,5



Turkiya	495,8	589,7	523,8
<i>Eksport</i>	141,8	152,5	155,7
<i>Import</i>	354,0	437,2	368,1



Turkmaniston	198,2	275,3	358,6
<i>Eksport</i>	31,4	41,4	18,4
<i>Import</i>	166,8	233,9	340,2



AQSH	174,3	151,5	263,3
<i>Eksport</i>	19,3	45,1	57,4
<i>Import</i>	155,0	106,4	205,9



Germaniya	378,2	683,2	234,0
<i>Eksport</i>	17,5	15,3	15,1
<i>Import</i>	360,7	667,9	218,9



Litva	86,0	197,3	221,1
<i>Eksport</i>	10,6	23,8	110,1
<i>Import</i>	75,4	173,5	111,0



Hindiston	166,2	143,3	204,7
<i>Eksport</i>	5,1	7,7	7,5
<i>Import</i>	161,1	135,6	197,2




BAA	140,4	200,7	167,5
<i>Eksport</i>	35,3	69,7	43,7
<i>Import</i>	105,1	131,0	123,8

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Afg'oniston	156,8	168,6	166,8
	<i>Eksport</i>	155,6	167,7	163,4
	<i>Import</i>	1,2	0,9	3,4
	Koreya Respublikasi	193,8	155,7	152,7
	<i>Eksport</i>	5,7	8,1	11,5
	<i>Import</i>	188,1	147,6	141,2
	Yaponiya	42,3	30,0	144,2
	<i>Eksport</i>	6,5	4,9	5,3
	<i>Import</i>	35,8	25,1	138,9
	Belarus	104,6	128,9	139,3
	<i>Eksport</i>	15,2	18,5	22,6
	<i>Import</i>	89,4	110,4	116,7
	Tojikiston	108,5	112,6	139,2
	<i>Eksport</i>	85,2	100,9	99,7
	<i>Import</i>	23,3	11,7	39,5
	Buyuk Britaniya	57,8	110,7	138,0
	<i>Eksport</i>	28,5	40,3	77,3
	<i>Import</i>	29,3	70,4	60,7
	Fransiya	71,7	152,5	132,0
	<i>Eksport</i>	2,9	0,6	6,5
	<i>Import</i>	68,8	151,9	125,5
	Chexiya	36,6	75,8	129,9
	<i>Eksport</i>	7,8	14,3	23,4
	<i>Import</i>	28,8	61,5	106,5
	Qirg'iz Respublikasi	99,3	93,4	114,2
	<i>Eksport</i>	87,6	67,2	89,2
	<i>Import</i>	11,7	26,2	25,0
	Saudiya Arabistoni	39,2	101,2	112,3
	<i>Eksport</i>	0,6	0,5	6,4
	<i>Import</i>	38,6	100,7	105,9




TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar –may mln AQSH doll.)*



Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 17,3 % ulush bilan 1 806,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,9 % ulush bilan 306,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga ko'paydi.



Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 59,0 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra, 4 280,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 828,4 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 3 452,0 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-may, ulushi, % da)

Rossiya – 25,9



Qozog'iston – 6,9



Turkmaniston – 3,4




Belarus – 1,3



Tojikiston – 1,3



Qirg'iz
Respublikasi– 1,1



Ukraina – 0,5



Ozarbajjon – 0,4



Armaniston – 0,1




Moldova– 0,01



Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (25,9 %), Qozog'iston (6,9 %) hamda Turkmaniston (3,4 %) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may, mln AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 3 692,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 671,7 mln AQSH dollari, import hajmi esa 3 021,0 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 1 531 taga yetdi va ular tomonidan 2 094,6 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-may ulushi % da)



Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	1 980,2	2 094,6	115,5	105,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	115,2	71,0	146,8	61,6	5,8	3,4
Ichimliklar va tamaki	35,0	28,5	119,9	81,3	1,8	1,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	23,1	20,6	73,0	89,0	1,2	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	76,3	121,8	68,9	159,6	3,8	5,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	0,7	41,3	2,8 m.	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	143,6	124,9	89,8	87,0	7,2	6,0
Sanoat tovarlari	373,0	383,9	110,1	102,9	18,8	18,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	199,1	256,9	2,3 m.	129,0	10,1	12,2
Turli xil tayyor buyumlar	78,4	73,9	131,2	94,2	4,0	3,5
Boshqa tovarlar	15,3	20,3	0,0	132,6	0,8	1,0
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	920,9	992,1	112,4	107,7	46,5	47,4


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 52,6 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (18,3 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (12,2 %) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln AQSH dollari, ulushi)

■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, Litva va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 66,7 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rne	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	352,8	399,1	119,1	113,1	1	1
XXR	302,3	310,5	84,9	102,7	2	2
Afg'oniston	167,7	163,4	107,8	97,4	4	3
Qozog'iston	180,5	157,1	126,0	87,0	3	4
Turkiya	152,5	155,7	107,5	102,1	5	5
Litva	23,8	110,1	2,2 m.	4,6 m.	15	6
Tojikiston	100,9	99,7	118,4	98,8	7	7
Qirg'iz Respublikasi	67,2	89,2	76,7	132,7	9	8
Buyuk Britaniya	40,3	77,3	141,4	191,8	13	9
AQSH	45,1	57,4	2,3 m.	127,3	10	10
BAA	69,7	43,7	197,5	62,7	8	11
Ozarbajjon	21,6	27,8	79,7	128,7	16	12
Kanada	14,8	23,4	180,5	158,1	20	13
Chexiya	14,3	23,4	183,3	163,6	21	14
Belarus	18,5	22,6	121,7	122,2	17	15
Gruziya	14,1	19,2	153,3	136,2	22	16
Turkmaniston	41,4	18,4	131,8	44,4	12	17
Latviya	25,0	18,2	2,0 m.	72,8	14	18
Polsha	8,7	16,2	72,5	186,2	25	19
Germaniya	15,3	15,1	87,4	98,7	18	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may, mln AQSH doll.)



Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 26,3 % bilan 550,4 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,1 % bilan 23,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-may oylarida import hajmi 8 371,1 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (28,9 %), sanoat tovarlari (16,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 528,6 mln AQSH dollariga ko'paydi va 8 371,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 596,4 mln AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	7 842,5	8 371,1	131,2	106,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	757,4	702,5	106,8	92,7	9,7	8,4
Ichimliklar va tamaki	64,3	87,8	152,0	136,5	0,8	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	104,5	87,4	96,6	83,6	1,3	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	582,7	1218,8	195,9	2,0 m.	7,4	14,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	107,7	68,0	161,7	63,1	1,4	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1173,3	1131,1	109,0	96,4	15,0	13,5
Sanoat tovarlari	1265,3	1362,3	113,5	107,7	16,1	16,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	2645,7	2422,7	139,8	91,6	33,7	28,9
Turli xil tayyor buyumlar	351,5	396,9	103,2	112,9	4,5	4,7
Boshqa tovarlar	333,5	297,2	0,0	89,1	4,3	3,6
Xizmatlar	456,6	596,4	139,1	130,6	5,8	7,1


Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-may natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 41,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln AQSH dollari, ulushi)

■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



2024- yil yanvar-may oylarida Toshkent shahrida 170 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Turkmaniston, Germaniya va AQSH) jami importning 70,0 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	1 580,8	2 310,2	118,6	146,1	2	1
XXR	1 821,9	1 840,4	132,9	101,0	1	2
Qozog'iston	582,5	567,5	115,0	97,4	4	3
Turkiya	437,2	368,1	123,5	84,2	5	4
Turkmaniston	233,9	340,2	140,2	145,4	6	5
Germaniya	667,9	218,9	185,2	32,8	3	6
AQSH	106,4	205,9	68,6	193,5	14	7
Hindiston	135,6	197,2	84,2	145,4	11	8
Koreya Respublikasi	147,6	141,2	78,5	95,7	9	9
Yaponiya	25,1	138,9	70,1	5,5 m.	37	10
Fransiya	151,9	125,5	2,2 m.	82,6	8	11
BAA	131,0	123,8	124,6	94,5	12	12
Belarus	110,4	116,7	123,5	105,7	13	13
Litva	173,5	111,0	2,3 m.	64,0	7	14
Tailand	61,6	109,0	7,3 m.	176,9	21	15
Chexiya	61,5	106,5	2,1 m.	173,2	22	16
Saudiya Arabistoni	100,7	105,9	2,6 m.	105,2	15	17
Italiya	82,5	83,4	111,6	101,1	18	18
Gruziya	38,0	81,0	107,0	2,1 m.	27	19
Polsha	76,2	75,2	2,3 m.	98,7	19	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-may, mln AQSH doll.)



Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 15,0 % bilan 1 256,4 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangihayot tumani 2,8 % bilan 234,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi.